



TASDIQLAYMAN

O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi

o'rinbosari

F. Tashmuxe'dov

“Ranglar jilosida – ona diyor” an’anaviy rasmlar tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom yoshlar o‘rtasida “Ranglar jilosida – ona diyor” rasmlar tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Tanlov bevosita O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, iqtidorli yoshlarning o‘z qobiliyatlarini namoyish etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlash, hududlarda ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy-madaniy merosini faol targ‘ib qilish, “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

1.3. Tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish uchun O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Badiiy ijodkorlar uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi va viloyat bo‘limlar tashkiliy ishlar bo‘yicha mas’ul etib belgilanadi.

II. Tanlovning asosiy maqsadi va vazifalari

2.1. Tanlovning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

yoshlar ongida mustaqillik tuhfa etgan aziz ne‘mat – Vatanimizdagi bugungi tinch va osuda hayot, farovonlik, o‘zlikka qaytish va uni anglash, inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan erkin demokratik jamiyat qurish, milliy va diniy qadriyatlarni tiklash, ulug‘ ajdodlarimizning bebaho ma’naviy merosidan bahramand bo‘lishdek ne‘mat qadriga yetish;

mustaqillik – xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon, hech kimdan kam bo‘lmagan hayot kechirish imkonini bergani, yoshlarimizning barcha sohalarda o‘z iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, istiqlolning qadr-qimmatini, uning bebaho ne‘mat ekanligini his ettirish;

zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni kamolga yetkazish, ular safini kengaytirish;

mahallalarda yoshlarning o‘z qobiliyatini namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish;

intellektual salohiyatli yoshlarni, yosh iqtidorlarni izlab topish va ularni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash.

2.2. Tanlovning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

yoshlar ongida vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko'nikmalarini yanada yuksaltirish;

yosh avlodni vatanparvarlik ruhida barkamol etib tarbiyalash, ular qalbida vatanga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash;

ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy-madaniy merosini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish;

mahallalarda yoshlarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlash hamda mahallalarda ijodiy muhit shakllanishiga erishish.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

3.1. Tanlovda **7 yoshdan 30 yoshgacha** bo'lgan yoshlar tasviriy san'at yo'nalishi (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) bo'yicha yaratilgan ijodiy ishlari bilan ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlov Badiiy ijodkorlar uyushmasining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat bo'limlari mas'ulligida hamda Toshkent shahrida har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda Tanlovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha hududiy Tashkiliy qo'mitalar shakllantiriladi.

Tanlovning respublika bosqichini hamda tanlov g'oliblarining ijodiy ko'rgazmasini tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Badiiy akademiyasining Tashkiliy qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Tashkiliy qo'mita deb ataladi) shakllantiriladi.

Tashkiliy qo'mita tarkibi O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Tashkiliy qo'mita zaruratdan kelib chiqib, Tanlov Nizomi va uni o'tkazish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

3.3. Tanlov quyidagi yosh toifalari bo'yicha o'tkaziladi:

7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan yosh ijodkorlar;

14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan yosh ijodkorlar;

18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yosh ijodkorlar.

3.4. Tanlov quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

birinchi bosqich - viloyat bosqichi: iyul oyida Badiiy ijodkorlar uyushmasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyat bo‘limlari tomonidan tashkil etiladi;

ikkinchi bosqich - respublika bosqichi: avgust oyida respublika Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan o‘tkaziladi.

3.5. Tanlov quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Tanlovning 1-bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan yoshlar Badiiy ijodkorlar uyushmasining hududiy bo‘limlariga joriy yilning **20-iyuliga** qadar ariza bilan murojaat qiladi.

Viloyat bosqichida har bir yosh toifasida I, II, III-o‘rinni qo‘lga kiritgan g‘oliblarga Respublika bosqichiga yo‘llanma beriladi.

3.6. Tanlovning respublika bosqichiga yo‘llanma olgan ishtirokchiga hududiy Tashkiliy qo‘mitalar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim qilinishi lozim:

hududiy tanlov natijalari bo‘yicha Tanlov Hakamlar hay'ati bayonnomasidan nusxa;

ishtirokchi shaxsini tasdiqlovchi hujjat (**pasport, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma**) nusxasi;

ishtirokchining oxirgi 3 oy ichidagi 3x4 hajmdagi **2 dona fotosurati**.

Tashkiliy qo‘mita har bir yosh toifasi bo‘yicha kelib tushgan hujjatlarni 5-avgustdan 10-avgustga qadar ko‘rib chiqadi, respublika bosqichi ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantiradi hamda nomzodlarning yakuniy ro‘yxatini tasdiqlaydi.

Tasdiqlangan ro‘yxat Hakamlar hay'atiga taqdim qilinadi. Tanlov Hakamlar hay'ati 15-avgustga qadar nomzodlar orasidan Tanlov g‘oliblarini aniqlaydi hamda Tanlov natijalari bo‘yicha qaror qabul qiladi.

3.7. Tanlovning g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi hamda tanlov g‘oliblarining ijodiy ko‘rgazmasi 2023-yil avgust oyining oxirida O‘zbekiston Badiiy akademiyasining **Xalqaro madaniyat karvon saroyida** o‘tkaziladi.

Tanlov g‘olibi va sovrindorlarini taqdirlash marosimining kuni va joyi Tashkiliy qo‘mita qaroriga asosan O‘zbekiston Badiiy akademiyasining rasmiy veb-saytida kamida uch kun oldin e‘lon qilinadi.

3.8. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlar arizalari 2023-yilning e‘lon qilingan kundan boshlab **20-iyuliga qadar** Badiiy ijodkorlar uyushmasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyat bo‘limlari tomonidan qabul qilinadi.

3.9. Tanlovga O‘zbekiston Badiiy akademiyasining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan namuna asosida to‘ldirilgan arizalar topshiriladi.

3.10. Tanlovga bitta ishtirokchi tomonidan “Ranglar jilosida – ona diyor” mavzusida yaratilgan **1 (bir) dona** ijodiy ish taqdim etiladi.

3.11. Ijodiy ishlarni Tanlovga qayta taqdim etish va arizani qaytarib olishga faqat ijodiy ishning egasi haqli.

IV. Tashkiliy qo'mita hamda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari

4.1. Tashkiliy qo'mita faoliyati davomida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Tanlovni o'tkazish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

Tanlov to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish va unga o'zgartirishlar kiritish;

Tanlov boshlanishi to'g'risida belgilangan muddatlarda O'zbekiston Badiiy akademiyasining rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalariga rasmiy e'lon berish;

Tanlovning o'tkazilish shartlari (tanlovni o'tkazish qoidalari, muddati, baholash jarayoni, mezonlari va bosqichlari)ni belgilash;

Hakamlar hay'atining tarkibi hamda uning raisi yuzasidan takliflar kiritish;

Tanlovning respublika bosqichiga hujjatlar qabul qilish jarayonini tashkil etish;

arizalarning mazkur Nizomda ko'rsatilgan talablar asosida rasmiylashtirilishini nazorat qilish;

Tanlovni o'tkazish jarayonida Hakamlar hay'ati ishlarini muvofiqlashtirish;

Tanlov g'oliblari va sovrindorlarini taqdirlash marosimini tashkil etish;

Tanlovning boshqa tashkiliy masalalarini hal etish.

4.2. Tashkiliy qo'mita o'z faoliyati davomida quyidagi huquqlarga ega:

Tanlovga taqdim etilgan ijodiy asarlar mazkur Nizomda ko'rsatilgan talablarga javob bermagan taqdirda asarni Tanlovga taqdim etmaslik;

Tanlov ishtirokchisi mazkur Nizomda ko'rsatilgan talablarni buzgan hamda Tanlovning o'tkazish talab va shartlariga mos kelmagan taqdirda uni tanlovdan chetlashtirish.

4.3. Tashkiliy qo'mita quyidagi tartibda qaror qabul qiladi:

Tashkiliy qo'mita tomonidan barcha qarorlar faqat a'zolarining ovoz berish yo'li bilan hamda hal qilinayotgan masalaning muhimlik darajasiga qarab qabul qilinadi.

Ovoz berish natijalari, unda Tashkiliy qo'mita a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda, haqiqiy deb qabul qilinadi.

4.4. Tashkiliy qo'mita Tanlov jarayonida quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

Tanlovning barcha ishtirokchilari uchun teng shart-sharoitlarni yaratish;

Tanlovning ochiq va oshkora tarzda o'tkazilishini ta'minlash;

Tanlov natijalarini kelishilgan muddatdan avval e'lon qilinishiga yo'l qo'ymaslik.

4.5. Tanlov ishtirokchisining huquqlari quyidagilardan iborat:

Tanlovni o'tkazish shartlari va tartibi to'g'risida ma'lumot olish;

Tanlov g'olibi deb e'lon qilinganida sovrin(lar)ni o'zi yoki ishonchli vakili orqali qabul qilib olish.

4.6. Tanlov ishtirokchisining majburiyatlari quyidagilardan iborat:
arizani topshirishdan oldin Tanlov Nizomi bilan to'liq tanishish;
Nizomda ko'rsatilgan talablar asosida arizani to'ldirilish;
mazkur Nizomda ko'rsatilgan qoidalarga qat'iy rioya etish.

4.7. Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan qo'shimcha hujjatlardagi noto'g'ri ma'lumotlar uchun javobgar hisoblanadi.

4.8. Tanlov ishtirokchisi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Tashkiliy qo'mita tomonidan tegishli tartibda Tanlovdan chetlashtirilishi mumkin.

Ishtirokchining Tanlovdan chetlashtirilganligi to'g'risidagi xabar uning elektron pochta manziliga (basharti uning anketasida elektron manzili ko'rsatilgan bo'lsa) yuboriladi.

Tanlov ishtirokchisi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganidan so'ng Tanlovga faqat Tashkiliy qo'mitaning ruxsati bilan ikkinchi marotaba ariza topshirishi mumkin.

V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

5.1. Tanlovda ishtirok etayotgan ijodiy ishlarning mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ijodiy ishning mazmuni tanlov mavzusiga mos kelishi;

Ijodiy ishning mazmuni yoshlarni vatanparvarlik, ular qalbida vatanga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash, barkamol shaxs etib tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi;

ishtirokchilarning sohadagi bilim darajasi va dunyoqarashi.

Tanlovda ishtirok etayotgan ijodiy ishlarga uchinchi shaxslarning huquqlari, shu jumladan, mualliflik huquqini poymol etuvchi materiallar, Tanlov mavzusiga zid bo'lgan, ma'naviy va axloqiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan materiallar, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatilishi ta'qiqlangan mahsulot va xizmatlar reklamasini joylashtirish ta'qiqlanadi.

5.2. Ijodiy ishlar (tanlov ishtirokchilarining ishlari) Hakamlar hay'ati tomonidan quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha baholanadi:

mazmundorlik, ijodiy ishning mazmuni tanlov mavzusiga mos kelishi;

ranglarning aniq tanlanganligi va mutanosibligi;

kompozitsiyaning ishlanish mahorati va uning tugallanganlik darajasi;

ijodiy ishlar badiiy g'oyasining tomoshabin hamda asar oldiga qo'yilgan vazifalarga mosligi.

5.3. Tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari Hakamlar hay'ati tomonidan maxsus ishlab chiqilgan baholash varaqalari yordamida baholanadi.

5.4. Ijodiy ishlar (ishtirokchilarning ijodiy ishlari) Hakamlar hay'ati tomonidan 10 ballik tizimda baholanadi.

5.5. Tanlov hay'atining har bir a'zosi har bir nomzodga o'z bahosini qo'yadi.

5.6. Tanlovning yosh toifalari bo'yicha g'oliblari va sovrindorlarini aniqlash tartibi quyidagicha:

Tanlov g'oliblari Hakamlar hay'ati tomonidan qo'yilgan baholarga qarab aniqlanadi;

Tanlovning yosh toifalari bo'yicha nomzodlarning yakuniy ballari teng bo'lib qolganda, Hakamlar hay'ati raisi ikkita ovoz berish huquqiga ega bo'ladi va hay'at raisi ovoz bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

5.7. Tanlovning yosh toifasi bo'yicha g'olibi quyidagi holatlarda aniqlanmasligi mumkin:

Tashkiliy qo'mitaning qaroriga muvofiq, muayyan yosh toifalari bo'yicha Tanlovga topshirilgan ishlarning hech bir talabga javob bermagan taqdirda (agarda to'plangan jami ballar miqdori 5 balldan past bo'lsa);

tegishli yosh toifasida ishtirok etuvchilar soni 5 tadan kam bo'lsa hamda ular orasidan birinchi o'ringa munosibi topilmasa.

5.8. Tanlovning respublika bosqichi ishtirokchilari ishlarini baholash uchun Hakamlar hay'ati tarkibi O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

VI. G'oliblarni taqdirlash

6.1. Tanlov g'oliblarini taqdirlashni tashkil etish maqsadida Tashkiliy qo'mitaning majlisi o'tkaziladi hamda Tanlov natijalari e'lon qilinadi. Tanlov g'oliblari va sovrindorlarining ro'yxati Hakamlar hay'ati tomonidan tasdiqlanadi.

6.2. Tanlov natijalari rasman e'lon qilingunga qadar Hakamlar hay'ati hamda Tashkiliy qo'mita a'zolari bu haqdagi ma'lumotlarni oshkor etishlari qat'iy ta'qiqlanadi.

6.3. Tanlov g'oliblarining ijodiy ko'rgazmasining ochilish marosimida g'oliblar tanatanali ravishda taqdirlanadilar.

Tanlov natijalari va g'oliblarning ro'yxati tantanali taqdirlash marosimidan so'ng O'zbekiston Badiiy akademiyasining rasmiy veb-saytida hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

6.4. Tanlovning yosh toifalari bo'yicha g'oliblari va ishtirokchilari tashkilotchilar tomonidan ta'sis etiladigan Tanlov diplomlari, sertifikatlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

6.5. Tanlov g'oliblari va sovrindorlari homiylar tomonidan (Tashkiliy qo'mita bilan kelishilgan holda) ta'sis etilgan qo'shimcha sovrinlar bilan taqdirlanishlari mumkin.

6.6. Tanlov natijalariga ko'ra Hakamlar hay'ati istalgan ishtirokchini hay'atning maxsus sovrini bilan taqdirlash huquqiga ega.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Tanlovni birinchi va ikkinchi bosqichlarini o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar maqsadli ajratilgan budget mablag'lari tomonidan o'rnatilgan tartibda qoplanadi.

7.2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayoniga homiylik mablag'larini jalb etish mumkin.

7.3. Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan asarlar bo'yicha rasmiy izoh va sharh berilmaydi.

7.4. Tanlovning respublika bosqichi uchun ijodiy ishlar tegishli hujjatlar bilan birgalikda **Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 37/A-uy manzili, Xalqaro madaniyat karvon saroyi binosida (telefon: (71) 252-30-88, (71) 256-35-56)** qabul qilinadi.

Izoh: *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 977-moddasiga muvofiq O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi ruxsati bilan mazkur Tanlov Nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.*